

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**RESPUBLIKA ONKOLOGIYA VA RADIOLOGIYA IXTISOSLASHTIRILGAN ILMIY-  
AMALIY TIBBIYOT MARKAZI EHTIYOJLARI UCHUN IONLASHTIRUVCHI  
NURLANISH MANBALARINING OLIB KIRILISHI VA OLIB CHIQIB KETILISHINI  
UZLUKSIZ TA'MINLASH TO'G'RISIDA**

Onkologiya kasalliklariga chalingan bemorlarga ko'rsatiladigan ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam sifatini oshirish va budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga qaror qildi:

1. Quyidagilar ma'lumot uchun qabul qilinsin:

Respublika onkologiya va radiologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (keyingi o'rnlarda Markaz deb ataladi) tomonidan Iridiy-192 ionlashtiruvchi nurlanish manbaida (keyingi o'rnlarda INM deb ataladi) ishlaydigan radioterapiya asbobidan foydalaniladi;

INMni xarid qilishni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari, Markazning budgetdan tashqari mablag'lari, xorijiy davlatlar, xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi;

"O'zmedimpeks" DUK Markaz uchun INMni yetkazib berishni amalga oshiradi;

INMning xizmat qilish muddati o'tgach ular yetkazib beruvchi firma mablag'lari hisobiga O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqib ketiladi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Farmatsevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 7-noyabrdagi PF-5229-son **Farmoniga** muvofiq, tibbiyot buyumi sifatida "O'zmedimpeks" DUK tomonidan olib kiriladigan INM bojaxona to'lovlaridan (bojxonada rasmiylashtirish yig'imlaridan tashqari) 2023-yil 1-yanvargacha ozod etilgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Tashqi savdo faoliyatini, iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlarining eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari axborot-tahlil departamenta tuziladigan import kontraktlari bo'yicha Markaz uchun INM (TIF TN bo'yicha kodi — 2844 40 200 0) importini amalga oshirish uchun "O'zmedimpeks" DUKga litsenziya berilishini belgilangan tartibda ta'minlasin.

3. "O'zmedimpeks" DUK tuzilayotgan import kontraktlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilgan INM ro'yxatlarining shuningdek, ularni olib kirish va olib chiqib ketish jadvallarining "Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspeksiyasiga o'z vaqgida taqdim etilishini ta'minlasin.

4. Markaz import qilinayotgan INMni davlat tomonidan hisobga qo'yish uchun "Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspeksiyasiga axborotlarning o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlasin.

5. "O'zbekiston havo yo'llari" MAK, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ Markazga keltirilgan INMni yuklash-tushirish, saqlash va tayyorlash ishlarining to'lov undirmasdan, xavfli yuklarni tashish va saqlash bo'yicha tegishli norma va talablarga rioya etgan holda amalga oshirilishini ta'minlasinlar.

6. "Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspeksiysi, Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiysi, O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi import qilinayotgan INMni tashish, saqlash, hisobga qo'yish va ulardan maqsadli foydalanish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan davlat nazoratini ta'minlasinlar.

7. O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi va "O'zmedimpeks" DUK xavfli yukning keltirilish joyi, sanasi va vaqt, yukni tashishga va yetkazib berishga jalb etiladigan avtotransport vositalari, xavfli yuklarni avtomobil transportida tashish qoidalari yuk tashuvchilar tomonidan bajarilishini ta'minlash tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlasinlar.

8. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

INMni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish punktidan Markazgacha tashishda, shuningdek, kelgusida ularning O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqib ketishda qo‘riqlanishi va kuzatib borilishini;

INMni tashish tadbirlariga jalb etiladigan maxsus uskunalangan avtotransport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligini hamda haydovchilarining yo‘riqnomalar bilan tanishtirilganligini O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining oldindan berilgan buyurtmanomalar bo‘yicha, shartnoma asosida, belgilangan tartibda ta’minlasin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari K.V. Akmalov va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri A.K. Shadmanov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2018-yil 1-fevral,  
72-son

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.02.2018-y., 09/20/72/0811-son)*